



Nilufar NASRIDINOVA,
Termiz davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: nmasriddinova57@gmail.com

Renaissance university dotsenti, DSc O'.Ergashev taqrizi asosida

ONA TILI DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN INTENSIV FOYDALANISH STRATEGIYALARI (1-SINF MISOLIDA)

Аннотация

Ushbu maqolada 1-sinf ona tili darslarida innovatsion texnologiyalardan intensiv foydalanishning samarali strategiyalari yoritilgan. Multimediali vositalar, interfaol metodlar, raqamli o'yinlar, guruhli ishlar va vizual ko'maklardan tizimli foydalanishning ta'lim jarayoniga ta'siri ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Shuningdek, innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarning savodxonlik darajasini oshirish, darsni qiziqarli tashkil etish va o'quvchi faolligini kuchaytirish imkoniyatlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion texnologiyalar, intensiv foydalanish, 1-sinf ona tili darslari, boshlang'ich ta'lim, interfaol metodlar, multimediali topshiriqlar, raqamli o'yinlar, pedagogik strategiyalar.

СТРАТЕГИИ ИНТЕНСИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА (В 1 КЛАССЕ)

Аннотация

В данной статье рассматриваются эффективные стратегии интенсивного использования инновационных технологий на уроках родного языка в 1 классе. С научно-педагогической точки зрения анализируется влияние систематического использования мультимедийных средств, интерактивных методов, цифровых игр, групповой работы и наглядных пособий на образовательный процесс. Также изучаются возможности использования инновационных технологий для повышения уровня грамотности учащихся, организации интересных уроков и повышения активности учащихся.

Ключевые слова: инновационные технологии, интенсивное использование, 1 класс, уроки родного языка, начальное образование, интерактивные методы, мультимедийные презентации, цифровые игры, педагогические стратегии.

STRATEGIES FOR INTENSIVE USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN NATIVE LANGUAGE LESSONS (ON THE EXAMPLE OF GRADE 1)

Abstract

This article discusses effective strategies for the intensive use of innovative technologies in 1st grade native language lessons. The impact of the systematic use of multimedia tools, interactive methods, digital games, group work and visual aids on the educational process is analyzed from a scientific and pedagogical point of view. The possibilities of using innovative technologies to increase students' literacy levels, organize lessons in an interesting way and increase student activity are also studied.

Keywords: innovative technologies, intensive use, 1st grade, native language lessons, primary education, interactive methods, multimedia presentations, digital games, pedagogical strategies.

Kirish. Bugungi tezkor o'zgarishlar davrida innovatsion texnologiyalar nafaqat iqtisodiy o'sishning drayveri, balki milliy yuksalishning asosiy omiliga aylandi. Intellektual salohiyat va zamonaviy yondashuvlar birlashgan joyda taraqqiyot shiddat bilan davom etadi. Innovatsiyalarni hayotimizning barcha jabhalariga, xususan, ta'lim va boshqaruv tizimiga integratsiya qilish davlatimizning strategik maqsadidir. Aynan shu maqsadda, mamlakatimiz rahbari o'z nutqlarida innovatsiyaning jamiyat hayotidagi o'rni haqida alohida to'xtalib o'tganlar: "Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oya, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Ta'lim tizimida innovatsion ta'lim muhitini yaratish, uni takomillashtirish, ta'lim oluvchilar ongida innovatsion ruhiyatni shakllantirish bevosita mamlakat kelajagini belgilab beruvchi ham ijtimoiy ham iqtisodiy omil hisoblanadi. Davr taraqqiyoti, uning sur'atlari kishilar ongida yangilikka intilish, integratsion yondashuv, kreativlik, innovatsion malakalarni shakllantirishni

talab etadi. Innovatsiya bu – kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalari, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak" [1].

Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilari ilm-fan yutuqlari natijasi bo'lgan zamonaviy texnologiyalar asrida voyaga yetmoqda. Kundalik hayotda ham gadjetlar, planshetlar, smartfonlar va turli raqamli qurilmalardan erkin foydalana oladilar. Shu sababli, ularni ta'lim olishga bo'lgan qiziqishlari ham oldingi ta'lim olish tizimidan tubdan farq qiladi. Jumladan, an'anaviy ta'lim usullari, ayniqsa darslar davomida faqat og'zaki tushuntirish yoki kitobga asoslangan mashg'ulotlar, yosh avlodning diqqatini jalb qilish va motivatsiyasini saqlashda yetarli bo'lmay qoladi. Natijada, o'quvchilar dars jarayonida zerikish, passiv qatnashish yoki materialni to'liq o'zlashtira olmaslik kabi muammolarga duch keladilar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. "Innovatsiya" tushunchasi dastlab XX asrda AQSHda madaniyatshunos olimlar tomonidan qo'llanilib, bir madaniyat elementlarini boshqasiga joriy qilish ma'nosida talqin etilgan. Keyinchalik u

ilm-fanning turli sohalariga yangilik kiritish va ularni qo'llash mazmunida qo'llanila boshlandi. Pedagogik innovatsion jarayonlar G'arb mamlakatlarida XX asrning 50-yillaridan boshlab o'rganila boshlagan bo'lsa, bizning mamlakatimizda so'nggi o'n yilliklarda maxsus ilmiy yo'nalish sifatida shakllandi [2].

Innovatsiya (yangilik kiritish) – muayyan tizimning ichki tuzilishini o'zgartirishga qaratilgan faoliyat bo'lib, uning natijasi muayyan tizimning rivojlanishiga yoki uni tubdan o'zgartirishga xizmat qiladi [3]. Izohli lug'atlarda keltirilganidek innovatsiya tushunchasi mavjud tizim yoki jarayonning ichki tuzilishini yangilash va takomillashtirishga qaratilgan faoliyat bo'lib, uning asosiy maqsadi tizimning rivojlanishiga hissa qo'shish yoki uni fundamental darajada o'zgartirishdir. Boshqacha aytganda, innovatsiya – bu tizimning samaradorligini oshiradigan, yangi elementlar yoki usullarni joriy etish orqali sifatli o'zgarishlar kiritish jarayonidir.

Dastlab innovatsiya pedagogikada faqat yangilik kiritish sifatida tushunilgan. Keyinchalik innovatsion texnologiyalarning nazariy asoslarini yaratishda bir qator tadqiqotchilar, jumladan G.I. Gorskaya, V.A. Kan-Kalik, V.A. Slastenin, S.L. Kuzmina, K. Angelovskiy, L.M. Fridman, G.A. Kitoygorodskaya, G. Lozanov, I.V. Shestitko va L.G. Denisovalar muhim ilmiy xulosalar bergan. Mamlakatimizda esa innovatsion pedagogika masalalari N. Azizxo'jayeva, B. Farberman, R. Mavlonova, U. Nishonaliyev va N. Sayidahmedovlar tomonidan tadqiq etilgan.

Innovatsion ta'lim (inglizcha innovation – yangilik kiritish, ixtiro) – bu pedagogik jarayonning bir turi bo'lib, unda o'quvchilar yoki talabalar yangi g'oyalar, me'yorlar va qoidalarni yaratish, shuningdek, boshqalar tomonidan ilgari ishlab chiqilgan ilg'or g'oyalar va qoidalarni samarali qabul qilish, o'zlashtirish va maqsadga muvofiq qo'llash ko'nikma va malakalari shakllantiriladi. Ushbu yondashuv birinchi marta 1979-yilda Rim klubida "Ta'lim berishning chegarasi yo'q" mavzusida taqdim etilgan ma'ruzada tilga olingan. Innovatsion ta'lim o'quvchilarga ijtimoiy muhit va madaniyatda yuzaga kelayotgan o'zgarishlarga moslashish, zamonaviy jamiyatda paydo bo'ladigan muammoli vaziyatlarni tez va samarali hal etish imkonini beradi. Shuningdek, uzluksiz ta'lim tizimida innovatsion ta'lim o'quvchi va talabalarni nafaqat bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga, balki yangi g'oyalarni yaratishga, ilg'or yondashuvlarni asoslashga va ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etishga tayyorlaydi [3].

A.I. Prigojin innovatsiyani jamiyat, tashkilot yoki guruhga yangi va barqaror unsurlarni maqsadli tarzda kiritish deb ta'riflaydi. Uning fikricha, innovatsiya jamiyatning barcha sohalarida — ta'lim, tibbiyot, ishlab chiqarish kabi tizimlarda bo'lishi zarur [4].

Ta'lim tizimiga innovatsiyalar zamonaviy texnologiyalar, o'qitishning yangi metodlari, vizual va raqamli vositalar orqali kirib kelgan. Butun dunyo tajribasida innovatsion texnologiyalar asosiy maqsad sari yo'naltirilgan holda qo'llanilib, har bir davlat ularni o'zining ta'lim qonuniyatlariga mos ravishda boyitadi.

Boshlang'ich ta'lim, ayniqsa 1-sinfda innovatsion texnologiyalardan foydalanish ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Interaktiv metodlar, blended learning (aralash ta'lim), muammoli o'qitish, grafik organayzerlar, vizual vositalar va boshqa texnologiyalar o'quvchining qiziqishi, faolligi va materialni mustahkam o'zlashtirishini ta'minlaydi.

Innovatsion texnologiyalardan intensiv foydalanish tushunchasini izohlashdan avval intensivlik tushunchasiga to'xtalish lozim. "Intensiv" atamasi fransuzcha "kuchaygan", lotincha "jonli, tez" ma'nolaridan kelib chiqqan. Pedagogik ensiklopediyada intensiv ta'lim — o'qitish jarayonini

tezlashtirish, qisqa muddatda samarali natijaga erishish jarayoni sifatida talqin etiladi. Bu atama ilk bor XIX asrning birinchi yarmida rus pedagogik adabiyotida qo'llangan [5].

Intensiv o'qitish nazariy asoslarini ishlab chiqqan olimlardan biri G.A. Kitoygorodskaya bo'lib, u chet tillarini intensiv o'rgatish metodikasida mazmun sifatida qisqa vaqt ichida samarali bilim va ko'nikmalarni shakllantirish jarayonini asoslab bergan. Uning xulosalariga ko'ra intensiv o'qitish aniq maqsadga yo'naltirilgan faoliyatni samarali tashkil etishga xizmat qiladi [8].

Intensiv o'qitishda mustaqil ish, guruhli faoliyat, muammoli vaziyatlar, munozara, ijodiy yondashuv, kommunikativ muhit yaratish kabi jihatlar asosiy o'rin tutadi. Bu yondashuvlar innovatsion texnologiyalarning maqsadlariga ham juda yaqin.

1-sinf ona tili darslarida til materiallarini qisqa vaqt ichida samarali o'zlashtirishga erishish uchun innovatsion texnologiyalar va intensiv o'qitish metodlarini integratsiyalash juda qulay. Bu ikki yondashuvning uyg'unligi vaqtini tejaydi, o'quvchi faolligini oshiradi, dars sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ona tili darslarida innovatsion texnologiyalardan intensiv foydalanish strategiyalarini tahliliga bag'ishlangan ushbu maqolada qiyosiy-mantiqiy tahlil, analiz, sintez, kabi metodlardan samarali foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Innovatsion texnologiyalardan foydalanish – ta'lim jarayonida zamonaviy, yangilangan, kreativ va interfaol usul jamda vositalarni qo'llash orqali dars samaradorligini oshirish, o'quvchini faol o'rganishga undash jarayonidir.

Innovatsion texnologiyalardan intensiv foydalanish esa – bu ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik va texnologik vositalarni tizimli, maqsadli va muntazam qo'llash orqali o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini qisqa vaqt ichida samarali shakllantirish jarayonidir.

Ushbu yondashuv quyidagi xususiyatlarga ega:

Maqsadga yo'naltirilganlik – texnologiyalar faqat dars maqsadlariga xizmat qiladi;

Tizimlilik va muntazamlilik – texnologiyalar dars davomida reja asosida integratsiyalangan holda qo'llanadi;

Faollik va interaktivlik – o'quvchi darsda passiv emas, balki faol ishtirokchi bo'ladi;

Samaradorlik – qisqa muddatda bilim va ko'nikmalarni tez va sifatli o'zlashtirish imkonini beradi.

Boshqacha aytganda, innovatsion texnologiyalardan intensiv foydalanish – bu zamonaviy vositalar va interfaol metodlarni integratsiyalab, darsni qiziqarli, interaktiv va samarali o'tkazish strategiyasi bo'lib, ayniqsa boshlang'ich sinflarda, masalan 1-sinf ona tili darslarida, til materiallarini tez va sifatli o'zlashtirishga xizmat qiladi.

Innovatsion texnologiyalardan intensiv foydalanishning ahamiyati.

1-sinf o'quvchilari uchun dars jarayonining qiziqarli, sodda va tushunarli bo'lishi juda muhim. Innovatsion texnologiyalardan intensiv foydalanish:

- dars jarayonini jonlantiradi;
- o'quvchilarni faol fikrlashga undaydi;
- o'quv materialining mustahkam o'zlashtirishini ta'minlaydi;
- har bir o'quvchining individual qobiliyatini ochishga yordam beradi;
- o'yin orqali o'rganish tamoyillarini kuchaytiradi.

Intensiv foydalanish strategiyalariga quyidagilar kiradi:

1. Multimediali taqdimotlar va topshiriqlardan foydalanish. Slaydlar, qisqa animatsiyalar va pictogramlardan foydalanish o'quvchilarda tovush–harf munosabati,

so'z tuzilishi, gap qurilishi kabi elementlarni tez va aniq o'zlashtirishga yordam beradi.

2. Interfaol metodlarni muntazam qo'llash. "Klaster", "Aqliy hujum", "Insert", "Blits-so'rov", "Bitta so'z bilan ayting" kabi metodlarni intensiv qo'llash o'quvchini dars davomida faol bo'lishga undaydi.

3. Raqamli o'yinlar va mobil ilovalardan foydalanish. Yosh o'quvchilar uchun mo'ljallangan savod o'rgatish ilovalari, interfaol o'yinlar harf tanish, bo'g'in tuzish va so'z o'qishda katta samaradorlik beradi.

4. Guruhli va juftlikda ishlashni tizimli yo'lga qo'yish. Birgalikda bajarilgan mashqlar muloqot madaniyati, tinglash, tushunish va fikrni ifodalash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Intensiv tarzda guruhlarda ishlash o'quvchilarni darsga jalb etadi.

5. Vizual ko'maklardan faol foydalanish. Kartochkalar, rangli belgilar, harf modeli, bo'g'in sxemalari, interfaol doskadan foydalanish 1-sinf o'quvchilari uchun o'rganishni osonlashtiradi.

Innovatsion texnologiyalardan intensiv foydalanish natijasida: o'quvchilarda savodxonlik tezroq shakllanadi hamda dars jarayoni qiziqarli va samarali bo'ladi. Shu bilan birgalikda o'quvchi tafakkuri va nutqi rivojlanadi, mustaqil

fikrlash va ijodiy yondashuv kuchayadi. Dars jarayonida o'qituvchi-o'quvchi o'zaro hamkorligi yaxshilanadi.

Xulosa. 1-sinf ona tili darslarida innovatsion texnologiyalardan intensiv foydalanish – zamonaviy ta'limning muhim talablaridan biridir. Bunday strategiyalar o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi, ta'lim jarayonining sifatini oshiradi va kelajakda yuqori savodxonlikka asos yaratadi. Ona tili darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish bosqichma-bosqich rivojlanib bormoqda. Ba'zi hududlarda bu jarayon ancha intensiv bo'lsa, boshqalarida hali ham muayyan qiyinchiliklar uchramoqda. Innovatsion texnologiyalardan intensiv foydalanish o'quv jarayonini interfaol, qiziqarli va samarali qiluvchi bir necha asosiy komponentlarni o'z ichiga oladi: multimedia va animatsiyalar orqali interfaol metodlar, elektron darsliklar va o'quv ilovalari yordamida axborot texnologiyalari, har bir o'quvchining qobiliyatiga mos differensial yondashuv, audiovizual materiallar va onlayn ta'lim resurslaridan foydalanish. Ushbu yondashuvlar til materiallarini hamda kompetensiyalarini qisqa vaqt ichida samarali shakllantirish va rivojlantirishni ta'minlaydi, o'quvchilarning faolligini oshiradi va ta'lim sifatini yaxshilaydi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2018.
2. Abdullayeva B., Usmonbayeva M., Asqarova O., Ehsonova F. Pedagogika. Izohli lug'at – Toshkent: "Innovatsiya ziyo" nashriyoti, 2020. – 283 b.
3. Aydarova U.B., Yuldasheva D.Sh. Ona tili 1-sinf, I qism. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. – Toshkent: "Novda", 2024. – 107 b.
4. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. – Toshkent. 2016. – 160 b.
5. Karimova N.R. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. – Namangan. 2020. – 114 b.
6. Mavlyanova R., Raxmankulova N. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va intergatsiya. O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Voris-nashriyot", 2022. – 240 b.
7. Pedagogika ensiklopediya. 2 jild. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2015. – 376 b.
8. Китайгородская Г.А. Методика интенсивного обучения иностранным языкам: Учеб. пособие. – 2 -е изд., испр. и доп. – М.: Высш. шк. 1986. – 103 с.